

9-sinf O'zbekiston tarixi

18-dars: Turkistonda harbiy- polisiya tartibotining barpo etilishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Turkistonda mustamlaka tartibotini kuchaytirish yo'llari, O'rta Osiyoga temir yo'llarning o'tkazilishi, o'lkada harbiy politsiya tartiboti, 1881-yilgi «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom», 1892-yildan boshlab 1916-yilga qadar Turkistonda «kuchaytirilgan qo'riqlov» hamda mahalliy aholi armiyada xizmat qilishdan ozod etilishi sabablari haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

Turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	“Interfaol metodlar”, “Guruhlarda ishlash”, Jumlani davom ettiring, boshqotirma
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	10 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	13 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	14 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Politsiya, ispravnik, apellatsiya, zemstvo, Temir yo'llarning qurilishi, Krasnovodsk, Qizilartov, Orenburg, Samarqand, Toshkent. 1878-yil, 1881, 1888-yil, 1899-yil, 1905-yil, 1892-1916-yillar, «kuchaytirilgan qo'riqlav».

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Jumlalarni davom ettiring



Turkiston o'lkasida imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan yana biri bu sud tizimi bo'lgan. Xonlik davrida qozilarning chiqargan qaroridan norozi bo'lganlar qozikalonga murojaat qilgan. Qozilar _____



Sud ishlarida mahalliy aholining o'troq qismi uchun qozi sudlari, ko'chmanchi aholisi uchun esa _____



Sudlarga joriy etilgan saylovlar mustamlakachi hukumat ixtiyorida bo'lib, saylovda kimning g'olib chiqishi _____

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- O'lkada harbiy politsiya tartiboti;
- Mustamlaka tartibotining kuchaytirilishi

O'lkada harbiy politsiya tartiboti



Toshkentdagi harbiy cherkov

Turkiston o'lkasida podsho hukumati mahalliy aholining keng ko'lamlil qo'zg'olonlarga aylanib ketadigan norozilik harakatlariga qarshi jazolash tadbirlari uchun imperiya manfaatlarini to'liq himoyalaydigan huquqiy asoslar yaratishga harakat qildi. 1881-yilda «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom» e'lon qilindi. Nizomga muvofiq general-gubernator «kuchaytirilgan» yoki «favqulodda» qo'riqlash holatini o'z ixtiyori bilan joriy etish huquqiga ega bo'ldi. Bunday huquq o'lkada qo'zg'olon, «jamoat osoyishtaligi» buzilgan va «tashvishli kayfiyatlar» paydo bo'lgan taqdirda unga o'z ixtiyoriga



ko'ra kuch va zo'ravonlik ishlatish mumkinligini anglatar edi. 1892-yildan boshlab 1916-yilga qadar Turkiston «kuchaytirilgan qo'riqlor» va «favqulodda qo'riqlor» holatida bo'ldi.

Yangi «Nizom» shahar va qishloqlarning har bir mavzesini nazorat ostida saqlab turgan avvalgi politsiya tuzilmalariga qo'shimcha tarzda uyezd boshliqlariga *ispravniklar* huquqini ham berdi. Bu narsa ularni uyezd politsiya boshqarmalari rahbarlariga tenglashtirgan edi. Ular har qanday odamni yetti kunga qamoqqa olishga y old jarimaga tortish vakolatiga ega bo'ldilar. Uchast-ka pristavlarini lavozimi ularga yordam tariqasida ta'sis etilgan edi. Odatda, ular soliqlar yig'imiga, joylarda majburiyatlar, uyezd boshliqlarining qarorlari ijro etilishiga rahbarlik qilgan ofitserlar bo'lib, har qanday o'zgarishlar haqida o'lka ma'muriyatiga ma'lumot yetkazib turgan holda aholi ustidan kerakli nazoratni amalga oshirar edilar. O'z uchastkalari doirasida ular surishtirish va tergov ishlarini yuritishi, qamoqqa olishi va jarimaga tortishi mumkin edi.

1882-1884-yillarda o'lkani tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F. Girs Turkistonda 2404000 kishi yashashini va ulardan 1200000 kishi erkak ekanligini yozgan. Xuddi shu erkak aholiga harbiy xizmat majburiyatini yuklash masalasiga to'xtalgan podsho amaldori (F. Girs) bu qaltis siyosiy tadbir ekanligiga ishora qilib, Turkiston aholisini armiyaga chaqirmaslik siyosatini yoqlab chiqdi. Podsho hukumati mahalliy aholini muntazam armiyada xizmat qilishidan, jangovar harbiy malakalarini oshirishidan, qo'shinlarni yevropachasiga takomillashtirishga o'rgatishdan va zamonaviy qurol-yarog'lardan foydalanish mahoratini egallab olishlaridan cho'chir edi. Shuning uchun mahalliy aholi qulay fursat kelganda ana shunday harbiy mahorat va zamonaviy qurollardan podsho hukumati o'ziga qarshi foydalanishidan hadiksirar edi. Mahalliy aholini qurolsizlantirish, unda qurolli kurash uchun har qanday umidni yo'qotish, jangarilik unsurlarini bostirish va qadimiy jangovar an'analarni tag-tomiri bilan tugatish — Turkiston o'lkasidagi podsho hukumati harbiy siyosatining asosini tashkil etar edi.

Mustamlaka tartibotining kuchaytirilishi



Toshkentdagi temiryo'l vokzali

Turkiston o'lkasida mustamlaka tartiboti harbiy kuch va keng tarmoqlangan politsiya tizimiga asoslangan edi. Bu vaqtgacha mustamlakachilik urushlari olib borish uchun saqlab turilgan harbiy qismlardan endi

podsho ma'muriyati tomonidan o'matilgan mustamlaka tartiblarini himoya qilish quroli sifatida foydalanadigan bo'ldi.

O'rta Osiyoga temir yo'llarning o'tkazilishi Rossiya iqtisodiyoti uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga harbiy-strategik maqsadlarni ham ko'zlab qurilgan edi. O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Rossiya imperiyasining mustahkam o'rtnashib olishi va

mustamlakachilik siyosatining keng qamrovli olib borilishida temiryo'llar muhim o'rin tutdi. Harbiy qo'shinlar va qurol-aslahalarni Krasnovodskdan Qizilarvatga qadar Kavkazdan O'rta Osiyoga tashish uchun temiryo'l qurildi. So'ngra temiryo'l qurilishi Ashxobodgacha davom ettirildi. 1888-yili dastlabki poyezd Samarqandga keldi, 1899-yilda esa temiryo'l Toshkent orqali Andijongacha qurib bitkazildi.

Rossiya harbiy qurolli kuchlarining asosiy bazalari Kavkazda joylashgan bo'lib, u yerdan Kaspiy dengizi orqali kemada tez kechib o'tish mumkin edi. Krasnovodskdan esa temiryo'l bilan Samarqand, Toshkent va Andijonga yetib kelish oson bo'ldi. Endi harbiy qismlarni

Krasnovodskdan Andijongacha bo'lgan 3 ming kilometrdan ziyod masofaga ko'cmrsh muammo bo'lmay qoldi.

Turkistonda paxta ekini keng tarqalishi va Rossiya kapitali joriy etilishi bilan XX asr boshlarida temiryo'llarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy ahamiyati ham ko'tarildi. 1905-yilda Orenburgdan Toshkentga qadar temiryo'l qurib kelindi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1-topshiriq: O'quvchilarga **“O'zingizni sinang!”** deb nomlangan kartochkalar tarqatiladi hamda ushbu kartochkalarda berilgan nuqtalar o'miga mos ma'lumot keltiring.



“O'zingizni sinang!”

1888-yilda 1899-yilda

Temiryo'l maqsadlarida qurildi. Chunki.....

2-topshiriq: O'quvchilarga **“YILLAR”** deb nomlangan boshqotirma kartochkalari tarqatiladi hamda ushbu kartochkalarda berilgan yillarda sodir bo'lgan voqealar aytiladi.



“BOSHQOTIRMA”

Quyidagi boshqotirma yechiladi:

A	1	8	8	8
B	1	8	8	1
C	1	9	0	5
D	1	8	9	2
E	1	8	9	9

Boshqotirmaning javoblari:

1. Samarqandga dastlabki poyezd keldi.
2. «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo‘riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Nizom» e‘lon qilindi.
3. Orenburgdan Toshkentga qadar temiryo‘l qurib kelindi.
4. Turkistonda «kuchaytirilgan qo‘riqlov» holati boshlandi.
5. Temiryo‘l Toshkent orqali Andijongacha keldi.

O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to‘planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

— **Dars yakunlarini chiqarish:**



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ 1888-yil — Samarqandgacha temiryo‘l qurildi.
- ▶ 1899-yil - Toshkent orqali Andijongacha temiryo‘l qurib borildi.



O‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga javob berish;
Baholarni e‘lon qilish.

O‘quvchilar aytib o‘tgan fikrlari to‘planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so‘nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Kelgusi darsda o‘tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo‘shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

